

---

## Bayram tabrigi

Rishton tumani hokimi S.Solievning O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 31 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi

Qadrli askarlar, serjant va ofitserlar hamda Qurolli Kuchlarimiz faxriylari!

Avvalo, barchangizni O'zbekistonimiz hayotidagi qutlug' sana - Vatan himoyachilari kuni va Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganligining 31 yilligi bayrami bilan samimiy tabriklashga ruxsat bergaysizlar! Ayni vaqtda bu bayram tadbirlari har bir hududda, har bir harbiy qismlarda alohida nishonlanmoqda. Dunyoda sharaflı kasblar ko'p, ular orasida eng sharaflisi o'z ona Vatani va xalqining tinchligi uchun xizmat qilishdir. Bugungi kunda milliy armiyamiz ming-minglab o'g'lonlarimiz uchun chinakam mardlik, fidoyilik, haqiqiy vatanparvarlik maktabiga aylangani, hech shubhasiz, shu yo'lda erishgan eng katta yutug'imizdir. Bu haqiqatni yurtimizdagi barcha ota-onalar, butun xalqimiz g'urur bilan, minnatdorchilik bilan e'tirof etmoqda. Hozirgi kunda onalar o'z farzandlarini armiyaga ko'zda yosh, yurakda xavotir bilan emas, balki mening o'g'lim haqiqiy Vatan himoyachisi bo'ladi, deb, yuksak ishonch va faxr tuyg'usi bilan kuzatmoqda. Xususan, harbiy xizmatni o'zining kasbi, Vatan va xalq oldidagi muqaddas burchi deb bilgan o'g'lonlarimizni sharaflash, ularga ehtirom ko'rsatish barchamiz uchun ham qarz, ham farzdir.

Qadrli Vatanimiz himoyachilari!

Mana shu qutlug' kunda Sizlarni bugungi bayram bilan chin dildan samimiy muborakbod etaman. Xalqimizga munosib va haqli ravishda faxrlana oladigan qurolli kuchlar yaratish yo'lida olib borilayotgan ishlaringiz bardavom bo'lsin. Shu munosabat bilan barchangizga mustahkam sog'liq, oilaviy baxt, tinchlik-xotirjamlik, xizmatlaringizda o'lkan muvaffaqiyatlar tilayman. Chegaralarimiz daxlsiz, osmonimiz musaffo bo'lsin.

Yana bir bor bayramingiz muborak bo'lsin, aziz Vatan himoyachilari!

2023-01-13 14:45:16